




Asosiy kapitalga investitsiyalar

2020- yil yanvar-iyun oylarida

Farg`ona viloyatida joriy yilning yanvar-iyun oylarida 4876,8 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ularning 69,0 % i yoki 3367,0 mlrd. so`m jalb etilgan mablag`lar hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, korxona, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan (31,0 % i) 1509,8 mlrd. so`m moliyalashtirildi.

Yanvar-iyun oylari davomida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar 402,7 mlrd. so`m o`zlashtirilib, o'sish sur'ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 73,5 % ni tashkil etdi.







FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

Markazlashgan moliyalashitirish manbalari hisobidan



Markazlashmagan moliyalashitirish manbalari hisobidan



2020- yil yanvar-iyun Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi



2020- yilning yanvar-iyun oylarida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga 4474,1 mlrd. so`m investitsiyalar o`zlashtirilib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 95,5 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga o`zlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo`yicha tarkibi

	mlrd. so`m	o`sish surati, % da	jamiga nisbatan, % da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	4876,8	93,2	100,0
Respublika byudjeti	275,7	73,8	5,7
Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi	-	-	
Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi	47,4	117,4	1
O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	79,6	95,5	1,6
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari	1082,3	140,5	22,2
To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar	1104,8	60,3	22,7
Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	777,2	-	15,9
Aholi mablag`lari	568,1	70,7	11,6
Korxona mablag`lari	941,7	90,1	19,3




FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Asosiy kapitalga investitsiyalar

	Asosiy kapitalga investitsiyalar	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo`yicha (mlrd. so`m):						
		Respublika byudjeti	Korxona va tashkilotlarning o`z mablag`lari	Aholining o`z mablag`lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlanтирish jamg`armasi	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag`lari	Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi
Jami:	4876,8	275,7	810,4	568,1	1961,7	47,4	1082,3	-
Farg'ona sh.	923,6	154,7	183,9	146,3	231,7	3,8	140,4	-
Qo'qon sh.	295,8	9,2	35,7	26,4	116,1	-	106,5	-
Quvasoy sh.	643,9	0,4	133,3	44,4	427,3	-	34,1	-
Marg'ilon sh.	357,6	1,6	67,9	19,5	24,0	-	232,3	-
Oltiariq	235,8	7,2	19,6	18,7	50,6	43,6	80	-
Qo'shtepa	209,7	5,2	54,5	15,8	128,8	-	5,1	-
Bag'dod	41,6	3,8	10,0	5,7	12,3	-	7	-
Buvayda	88,9	2,6	11,5	29,9	6,7	-	37,4	-
Beshariq	305,3	6,4	5,0	16,1	267,3	-	5,4	-
Quva	110,4	0,6	6,3	57,7	20,0	-	20,2	-
Uchko'prik	256,1	6,1	107,5	7,8	72,1	-	62,6	-
Rishton	70,4	3,5	14,5	4,6	8,8	-	30,7	-
So'x	13,3	4,4	6,0	2,9	0,0	-	0	-
Toshloq	138,4	1,6	8,9	22,5	41,9	-	62,3	-
O'zbekiston	553	8,8	49	25,6	377,5	-	84,8	-
Farg'ona t	96,1	11,4	44,2	4,1	17,0	-	19,4	-
Dang'ara	298	8,5	16,7	67,2	76,0	-	129	-
Furqat	143,1	2,4	25,4	40	60,0	-	14,5	-
Yozyovon	95,8	37,3	10,5	12,9	23,6	-	10,7	-

2020- yil yanvar-iyun Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati




Viloyatda asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati 2019- yil mos davriga nisbatan: Furqat tumanida 2,3 m, Quvasoy shahrida 193,1 %, Qo'shtepa tumanida 179,3 %, Dang'ara tumanida 165,1 % ga ko'paygan. Investitsiya hajmini hududlarda yuqori bo'lgani asosan investitsiya dasturidagi loyihalarni amalga oshirilishi bilan izohlanadi.



Asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilishi

(jami hajmga nisbatan ulushi % da)



Farg'ona viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,2 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 1948,9 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 40,0 % ini tashkil etdi, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 2686,8 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 55,1 %) va boshqa xarajatlarga 241,1 mlrd. so'm (4,9 %) o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi (mlrd. so'mda)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (% da)



- Yangi qurilish
- Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik quollantirish
- Boshqalar

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Ushbu yo'nalishdagi investitsiyalar hajmi 1965,9 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 40,3 % ni tashkil etdi.

Mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik quollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 1531,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 31,4 % ni tashkil etdi, 1379,6 mlrd. so'm (28,3 %) boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	2020- yil yanvar–iyun			
	Jami investitsiyalar		shundan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so'm	umumiyl hajmga nisbatan % da	mlrd. so'm	umumiyl hajmga nisbatan % da
Jami	4876,8	100,0	1961,7	100,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	508,4	10,4	197,4	10,1
Tog'–kon sanoati	80,3	1,6	59,1	3,0
Qayta ishslash sanoati	2322,6	47,6	1418,7	72,3
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	90,6	1,9	40,3	2,1
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	50,9	1,0	1,8	0,1
Qurilish	192,6	3,9	34,1	1,7
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	453,1	9,3	58,2	3,0
Tashish va saqlash	127,3	2,6	5,2	0,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	37,2	0,8	0,4	-
Axborot va aloqa	23,7	0,5	21,6	1,1
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	18,2	0,4	-	-
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	19,3	0,4	-	-
Ta'lim	185,9	3,8	1,7	0,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	76,8	1,6	12,0	0,6
Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar	396,0	8,1	-	-
Boshqa faoliyat turlari	215,4	4,4	110,9	5,7

2020- yil yanvar- iyun Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan

investitsiyalar (mlrd. so'm)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori ko'rsatkichlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlandi: qayta ishslash sanoati jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 2322,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 47,6 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 508,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,4 %, ulgurji va chakana savdo sohasida 453,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,3 % i, turar joy binolari qurilishida 396,0 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,1 % i hamda qurilish sohasida 192,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 3,9 % i o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. so'm)



Joriy davrda viloyatda xorijiy investitsiyalar hajmi 1961,7 mlrd. so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar hajmining 40,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,2 % ga o'sdi. Bunda O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati ostida xorijiy investitsiyalar hajmi 79,6 mlrd. so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar hajmining 1,6 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,5 % ga o'sdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1104,8 mlrd. so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar hajmining 22,7 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 60,3 % ga o'sdi hamda qolgan 777,3 mlrd. so'm boshqa manbalar hisobidan o'zlashtirildi.



FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



**Farg'ona viloyat statistika
boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: 0373 241-98-42

2020- yil yanvar- iyun Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi